



CROCUS SATIVUS O'SIMLIGI TARIXI VA KELIB CHIQISHI

¹Ho'sinova Gulasal Shamsiddin qizi

UrDU Biologiya yo'nalishi IV bosqich talabasi,

²Madaminov Sulaymon Nizomiddin o'g'li

UrDU Biologiya yo'nalishi IV bosqich talabasi,

³Karimova Gulnoza Fayzulla qizi

UrDU Biologiya yo'nalishi IV bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7539867>

ARTICLE INFO

Received: 06th January 2023

Accepted: 15th January 2023

Online: 16th January 2023

KEY WORDS

Abberant meyo, mutant shakl, Krokus, Smilaks, Hemrmes, stigma, oshqozon-ichak kasalliklari, buyrak kasalliklari, ichki qon ketish, Finikiyaliklar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada za'faron o'simligining Xorazm sharoitidagi bioekologiyasini tadqiq qilish haqida yoritilgan. Shuningdek, za'faron o'simligi, uning sistematik o'rne, uning amaliy ahamiyati haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

«Tumanlar qizilmiya, za'faron, kavrak, lavanda, steviya, moychechak, na'matak, ravoch, mavrak, dalachoy, tog'rayhon, bo'ymadaron, kiyik o'ti, kovul, qalampir yalpiz va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha hududlar kesimida ixtisoslashtiriladi. Bunda, 2022-yildan 2026-yilgacha 36000 gektar maydonda yangi dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etiladi.»

Shavkat Mirzayev¹

Ko'plab xalqlar dasturxonidagi turli ziravorlar sultoni, bir urug'pallali o'simliklar sinfi Gulsafsardoshlar *Iridaceae* oilasi vakili bo'lgan za'faron o'simligi O'rta yer dengizidagi noma'lum turdan kelib chiqqan deb tahmin qilinadi. Za'faron - *crocus sativus* o'simligi triploid xromosomalar yig'indisini o'zida jamlaganligi (24 ta xromosoma) va har bir xromosoma to'plami turlicha shaklga va hajmga ega ekanligi sabab uni urug'idan ko'paytirish imkoni mavjud emas. Za'faron piyozchalari bilan vegetativ usulda ko'paytiriladi.

Za'faron yetishtirish va undan unumli foydalanish tarixi 3500 yillikni tashkil qiladi. Turli qit'alarda, turli madaniyatlarda za'faron - *crocus sativus* eng noyob va qimmatbaho ziravor sifatida qadrlanib kelingan. Za'faronning o'ziga xos achchiq ta'mi, pichansimon hidi taomga o'zgacha ta'm baxsh etsa, apakarotinoidlar boyligi bilan uni bo'yoq sifatida ham qo'llash imkoniyatini bergan.

Eronda mavjud turlar *C. thomasi* va *C. pallasii* turlarning chatishishi yoki *Crocus cartwrightianus* yovvoyi turining tasodifiy chatishishidan ziravorlar sultoni za'faron paydo bo'lgan deb tahmin qilinadi. Za'faronning vatani Eron deb tan olinsada, Gretsiya, Mesopatamiya va Kashmirda ham za'faron paydo bo'lishi mumkin bo'lgan hududlar mavjudligi aniqlangan. Za'faronda triploid to'plam saqlanganligi bois unda "qiz" hujayralar

¹ <https://lex.uz>



hosil bo'lmaydi. U abberant meyoza uchraydi, shu sababdan mustaqil ravishda jinsiy ko'paya olmaydi. Agar *crocus sativus* C. cartwrightianus turining mutant shakli deb qaralsa, uning paydo bo'lish vaqtini Bronza davrining oxiri deb tahmin qilish mumkin.

Za'faron so'zi arabcha zza'farān (za'farān) atamasida forscha zarparān (zarparān) so'zi kelib chiqqan. So'zma-so'z tarjima qilinganda "oltin barglar" degan ma'noni anglatadi. Arab tiliga esa bu atama XII asrda fransuz tilida safran, lotinchada esa safranum so'zlaridan kirib kelgan. Lotinchada safranum, katalan tilida safrà, italyanchada zafferano, portugalgacha açafrao, ispanchada azafraán, arabchada esa az-zaferán deb nomlanadi.

Eramizning III asrigacha bo'lgan davrda za'faron o'simligi Yunon-Rim madaniyatiga tegishli deb tahmin qilinadi. Bu davrgacha bo'lgan za'faron tasvirlari esa Bronza davri tasvirlaridan topilgan. Minoan Kriti saroyi tasvirlarida za'faron suratlari tasvirlangan va tasvirlarda uning gulidan turli hastaliklarni davolashda qo'llashayotganlarini ko'rish mumkin. Xususan, eramizdan 3000-1100 yillar avvalgi Egey dengizining Santaroni orolida joylashgan Xesta-3 saroy suratlarida qon oqayotgan oyog'ini za'faron bilan davolayotgan ayol tasviri topilgan. "Theran" tasvirlari esa za'faronni dori sifatida ishlatishning ilk botanik tasvirlari deb aytiladi.

Eramizdan avvalgi 1645-1500 yillarda kuchli vulqon otilishi natijasida za'faron yetishtirish va davolashni yo'lga qo'ygan qabila – Minoan aholisi qirilib ketadi. Biroq vayron bo'lgan vulqon kuli o'simlik qismlarini bosib qolishi natijasida ular saqlanib qolgan.

Yunonistonning qadimgi afsonalarida dengizchilar uzoq va xavfli sayohatga chiqishlari va hayotbaxsh o'simlik za'faronni olib kelishlari haqida afsonalar bo'lgan. Eng mashhur afsona esa Krokus va Smilaks afsonasi hisoblanadi. Go'zal va yosh Krokus Afinaga yaqin bir o'rmonda Smilaksni ta'qib qiladi. Smilaks kuchli va zehni sehgarg bo'ladi va Krokusga ko'plab tuzoqlar qo'yadi. Krokus mashaqqatlar bilan to'siqlarni birin-ketin yengib, Smilaks tomon ildam qadam tashlab boradi. Bulardan charchagan Smilaks esa Krokusni *crocus sativus*ga aylantirib qo'yadi. Uning yorqin sariq stigmatalari esa shijoat ramzi sifatida saqlanib qolgan, deyiladi.

Yana bir afsonda aytilishiga ko'ra, yosh va jasur Krokus xabarlar yetkazuvchi ma'buda Hermesning sevgilisi bo'ladi. Janglarning birida Hermes tasodifan Krokusni yaralab qo'yadi. Qo'llarida jon berayotgan sevgilisini bir umrga yo'qotishdan qo'rqqan Hermes uni xushbo'y hidli va nozik gulga aylantiradi. Uning apelsin rangida tovlanuvchi stigmatalari va yorqin bifasha rangi ularning otashin sevgisi ramziga aylanadi.

Qadimgi O'rta yer dengizi aholisi za'faronidan parfumeriya va turli malhamlar tayyorlashda, Suriya va Bobil esa oshqozon-ichak yoki buyrak kasalliklarini davolashda qo'lashgan.

Misrning mashhur qirolichasi Kleopatra hushbo'y ifor hamda tiniq tana rangi uchun za'faronli vanna qabul qilgan. Bundan tashqari Misr tabiblari turli ichki qon ketishlarda ham za'faronidan foydalanishgan bu malham za'faron stigmatalarini maydalab agar daraxti qoldiqlari, ho'kiz yog'i, koriandr va mirra bilan tugib tayyorlashdan iborat edi. Buyrak kasalliklarini davolashda esa za'faronni qovurilgan loviya bilan birga iste'mol qilishgan.

Yunon-Rim davrida za'faron o'simligini Finikiyaliklar O'rta yer dengizi bo'ylab sotishgan. Rados aholisi za'faronni asosan bo'yoq uchun harid qilishgan. Bo'yoqchilar qirollik kiyimlarini binafsha rangga olib kirish uchun 3 bora za'faronli vannaga botirishgan. Eramizdan avvalgi



271-yilga qadar za'faron Rimda keng suratlarda ekilgan, Italiya bosqinidan so'ng uning savdosi va yetishtirilishi keskin kamayib brogan.

Fors imperiyasining shimoliy-g'arbida topilgan g'or chizmalarining bo'yoqlaridan ham za'faron pigmentlari topilgan. Shumerlar esa za'faronni sehrli damlamalariga ham qo'shishgan. Ahamiyatni jalb qiladigan tarafi shundaki, shumerlarning damlamalariga faqatgina yovvoyi holda o'suvchi za'faronlar qo'shilgan, ular hech qachon uni o'zlari yetishtirishmagan.

Janubiy va Sharqiy Osiyoga za'faronning kirib kelishiga oid bir necha tahminlar mavjud. Ulardan biri shuki, za'faron o'simligi Hindistondan Janubiy-sharqiy Osiyoga Fors hukmdori buyrug'i bilan tashkil qilingan bog'ga o'zgacha tarovat va bezak berish uchun olib kelingan, deb tahmin qilinadi. Vaqtlar o'tishi bilan savdo yo'llari orqali za'faron haqida turli afsonalar va uning dorivorlik xususiyati bilan bog'liq tavsiyalar kela boshlagan va odamlar uni yetishtira boshlaganlar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunning qahramon o'simliklaridan bo'lgan za'faron yillar va hatto eralar osha turli hastaliklarda ko'plab odamlarga davo bo'lgan, ajoyib afsonalarga aylangan. O'zbekistonda ham bu noyob o'simlikning yetishtirishi esa xalqimizning tabiiy vositalar bilan tetik va sog'lom bo'lishiga ulkan hissalar qo'shishiga ishonib qolamiz.

References:

1. "Saffron, an alternative crop for sustainable agricultural systems.Areview". HAL: 95. 2008.
2. Lichtfouse, Eric (13 July 2017). Sustainable Agriculture Reviews. Springer. p. 171. ISBN 9783319586793.
3. Saffron : science, technology and health. A. Koocheki, Mohammad Khajeh-Hosseini. Duxford, United Kingdom. 2020. ISBN 978-0-12-818740-1. OCLC 1140113593
4. Harper, D. (2001), Online Etymology Dictionary, retrieved 12 September 2011.
5. Deo, B. (2003), "Growing Saffron—The World's Most Expensive Spice" (PDF), Crop and Food Research, New Zealand Institute for Crop and Food Research, no. 20, archived from the original (PDF) on 27 December 2005, retrieved 10 January 2006.
6. Hogan, C. M. (2007), Knossos Fieldnotes, The Modern Antiquarian, retrieved 10 April 2008
7. Willard, P. (2002), Secrets of Saffron: The Vagabond Life of the World's Most Seductive Spice, Beacon Press, ISBN 978-0-8070-5009-5.
8. Dalby, A. (2002), Dangerous Tastes: The Story of Spices (1st ed.), University of California Press, ISBN 978-0-520-23674-5
9. <https://lex.uz>
10. <https://wikipedia.org>